

KIBERJINOYATLARNING TURLARI VA ULARNING HUQUQIY JAVOBGARLIGI

Uralova Kamola Shuhratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 1-kurs B-potok 3-guruh talabasi.

Email: kuralova021@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18831184>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberjinoiyat nima ekanligi, uning turlari va xalqaro kiber huquqda olimlarning nazariy qarashlari yoritib berilgan. Bundan tashqari O'zbekistonda kiberjinoiyatni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari hamda kiberjinoiyatchilik to'g'risida statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kiberjinoiyatlar, kiberbulling, kiberterrorizm, fishing, Devid Uoll, Kiber-xos jinoiyatlar, Kiber-yordamchi jinoiyatlar, DDoS hujumlar.

Аннотация. В данной статье раскрывается понятие киберпреступления, его виды, а также теоретические взгляды ученых в области международного киберправа. Кроме того, рассматриваются меры ответственности за совершение киберпреступлений в Узбекистане, а также приводятся статистические данные о состоянии киберпреступности.

Ключевые слова: киберпреступления, кибербуллинг, кибертерроризм, фишинг, Дэвид Уолл, кибер-зависимые преступления, кибер-обусловленные преступления, DDoS-атаки.

Abstract. This article explains the concept of cybercrime, its types, and the theoretical views of scholars in the field of international cyber law. In addition, it discusses the measures of liability for committing cybercrimes in Uzbekistan and provides statistical data on the state of cybercrime.

Keywords: cybercrimes, cyberbullying, cyberterrorism, phishing, David Wall, cyber-dependent crimes, cyber-enabled crimes, DDoS attacks.

Raqamlashib borayotgan davrda insonlar hayoti uchun bir qancha qulay shart – sharoitlar yaratilmoqda. Turli xildagi texnologiyalar, sun'iy intellektlar, robotlar insonlar hayotini kundan kunga yaxshilamoqda. Insonlar uchun qanchalik ko'p imkoniyatlar, huquq va erkinliklar yaratilsa, ularni buzuvchi huquqbuzarliklarni sodir etish va ularning huquqlarini buzuvchi har xil jinoiyatlar kelib chiqishi tabiiy.

Bularga misol tariqasida, kiber jinoiyatlarni olsak, kiberjinoiyatlar – bu kompyuter tizimlari, tarmoqlari va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan noqonuniy harakatlar yoki jinoiyatlardir¹. Har bir jinoiyatning o'zining xususiyati, obyektlar sodir etilish usullariga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Kiberjinoiyat ham an'anaviy kriminologiyada jinoiyat muayyan vaqt va makonda sodir etiladigan, jismoniy harakatni talab etuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sifatida tushunilgan bo'lsa, kiberjinoiyatlar "virtual reallik"da sodir etilishi, transchegaraviy xususiyati va jinoiyatchining jabrlanuvchi bilan jismoniy aloqaga kirishmasligi (contactless crime) bilan ajralib turadi.² Demak kiberjinoiyatlar masofadan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoiyat turi hisoblanadi.

¹ https://www.youtube.com/watch?v=hts_Kzxn7JA

² <https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view>

Ya'ni firibgarlar o'z niyatiga erishish uchun har xil qurilmalar o'ylab topib ba'zi bir insonlarga o'zini yaqin insonidek ovoz yozish qurilmalaridan foydalanib katta miqdorda pul so'rash orqali bu kabi huquqbuzarliklarni amalga oshirishmoqda. Bu kabi jinoyatning har xil turlari mavjud. Ularning quyidagi turlari mavjud:

1. Kiberbulling – virtual olamda axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalarning foydalangan holda biror bir shaxs yoki guruh haqida haqoratli xabarlarini internet tarmog'ida tarqatish yoxud joylashtirishni anglatadi.³

2. Kiberterrorizm – har qanday davlat yoki jamiyat o'rtasida turli xil qo'rquv va vahima o'rnatish maqsadida noqonuniy va buzg'unchi harakatlarni bitta shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilishi.⁴

3. Fishing – unda maqsadli elektron pochta, telefon yoki matnli xabar orqali qonuniy muassasa sifatida namoyon bo'lgan shaxs tomonidan jismoniy shaxslarni shaxsiy identifikatsiyalash mumkin bo'lgan ma'lumotlar, bank va kredit karta ma'lumotlari va parollari kabi maxfiy ma'lumotlarni jalb qilish uchun bog'lanadi.⁵ Misol uchun bir shaxs yoki guruh biror bir jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari, xususan, bank hisobvaraqlari yoki shaxsga doir ma'lumotlarini olish orqali uning pul mablag'larini noqonuniy olishda namoyon bo'ladi.

4. Bu qonunbuzarlik turli xil shakllarda sodir etilishi mumkin. Masalan, insonlarning web saytlariga har xil linklar jo'natish yoki zamonaviy qurilmalar orqali telefon qilish natijasida yaqin insonlarining ovozlari o'xshatib bank hisoblaridagi pullarini yechib olish holatlari ham juda ko'p sodir etilayotgan huquqbuzarliklardan hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Kun.uz rasmiy veb-saytida ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda 5.5 mingta kiberjinoyatlar sodir etilgan. Bu ko'rsatkich esa 2025 yilda faqatgina poytaxt Toshkent shahrining o'zida bu qariyb 16 mingdan ortib ketgan.⁶

5. Bu esa 3 barobarga ko'p sodir etilganidan dalolat beradi. Kiberjinoyatchilikni oldini olish uchun esa malakali va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar ya'ni IT va kompyuter texnologiyalarini yaxshi tushanadigan mutaxassislar zarur hisoblanadi. Chunki, qanchalik yangicha jinoyatchilik turlari ko'paysa, aholining ham shunchalik tez huquqlari buzilishiga olib keladi va ularni himoya qiluvchi mutaxassislar ham zarur hisoblanadi.

Zamonaviy akademik doktrinada, xususan, britaniyalik mashhur Devid Uoll (David Wall) nazariyasiga ko'ra, kiberjinoyatlar o'z tabiatiga ko'ra ikki yirik guruhga bo'linadi: "Kiber-xos jinoyatlar" va "Kiber-yordamchi jinoyatlar".⁷ Kiber-xos jinoyatlar – bu faqat va faqat axborot kommunikatsiya texnologiyalari mavjud bo'lgan muhitdagina sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishdir.⁸

Demak, bunday jinoyatlar asosan turli xildagi telefon, kompyuter, planshet va boshqa shu kabi texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar tarkibiga kiradi.

³ https://sciencejournal.uz/media/pdf/Ovliyakulov_Husan_Ruziboy_ogli.pdf

⁴ https://sciencejournal.uz/media/pdf/Ovliyakulov_Husan_Ruziboy_ogli.pdf

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fishing>

⁶ <https://yuz.uz/uz/news/138067>

⁷ Wall, D.S.(2007). Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. Polity Press. (Devid Uoll – Lids universiteti professori, kiberjinoyatlar tasnifi bo'yicha dunyoga mashhur olim)

⁸ <https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view>

Misol uchun, DDoS hujumlar - Tizimga bir vaqtning o'zida ko'plab so'rovlar yuborish orqali serverlarni ishdan chiqarishga qaratilgan hujumlar. Bu orqali veb-saytlar va onlayn xizmatlar vaqtincha to'xtab qolishi mumkin. DDoS hujumlari – ma'lum bir veb-sayt yoki serverga ortiqcha yuk tushirib, uni ishlamay qolishiga sabab bo'luvchi jinoyatlardan biridir.⁹

Kiber-yordamchi jinoyatlar esa aslida an'anaviy jinoyatlar (firibgarlik, o'g'rilik, haqorat qilish, narkotik savdosi) bo'lib, ular kompyuter taxnologiyalari yordamida yangi miqyos va shakl kasb etadi.¹⁰ Qonunchiligimizda aynan kiberxavfsizlik uchun aniq bir jazo yoki javobgarlik tushunchasi mavjud emas, ammo hukumatimiz qonun analogiyasidan foydalangan holda javobgarlik choralari belgilaydi. Misol uchun firibgarlik O'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksining 168-moddasida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqini qo'lga kiritishdir degan norma mavjud.

Ya'ni kiberxavfsizlik ham odamlarni aldab moddiy manfaat ko'rishda ifodalanadi.

Shuningdek, o'g'rilik, jinoyat kodeksining 169-moddasiga asosan o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishdir. Demak, kiberjinoyatlar yashirin ravishda odamlarning shaxsga doir ma'lumotlarini olganlik uchun ushbu turdagi jinoyat sifatida javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kiberjinoyatchilik bugungi kunda butun dunyoda eng ko'p sodir etiladigan jinoyatlardan biri hisoblanadi. Uni sodir etishni esa firibgarlar har xil turlarini o'ylab topishmoqda. Buning natijasida barcha insonlarni aldab moddiy manfaat ko'rishmoqda. shu sababli zamon talabi tufayli ogoh bo'lish hech bir insonga zarar qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.youtube.com/watch?v=hts_Kzxn7JA
2. <https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view>
3. https://sciencejournal.uz/media/pdf/Ovliyakov_Husan_Ruziboy_ogli.pdf
4. https://sciencejournal.uz/media/pdf/Ovliyakov_Husan_Ruziboy_ogli.pdf
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fishing>
6. <https://yuz.uz/uz/news/138067>
7. Wall, D.S.(2007). Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. Polity Press. (Devid Uoll – Lids universiteti professori, kinerjimoyatlar tasnifi bo'yicha dunyoga mashxur olim)
8. <https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view>
9. <https://www.uzmarkaz.uz/en/news/kibermakondagi-jinoyatlar-va-ularning-oldini-olish-choralari>
10. <https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view>

⁹ <https://www.uzmarkaz.uz/en/news/kibermakondagi-jinoyatlar-va-ularning-oldini-olish-choralari>

¹⁰ <https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view>